

URETRA POLIPI GISTOLOGIK SHAKLLARI BO'YICHA TO'QIMA TUZILMALARINING MORFOMETRIK KO'RSATKICHLARI

Boboyev R.A., Xamrayev O.A.

Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada ayollar uretrasi polipining har xil histologik shakllarida to'qima tuzilmalarining morfometrik ko'rsatgichlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, ayollar uretrasi poliplarining histologik shakllariga bo'yicha har biriga xos patomorfologik o'zgarishlarga bog'liq holda to'qima tuzilmalarining egallagan maydoni bir-biridan farq qilgan holda turlicha bo'lishi kuzatildi. Bezli polip shaklida ko'pincha disgormonal holatiga bog'liq holda bez tuzilmalarining giperplaziyalanishi va egallagan maydoni keskin darajada ustun turishi isbotlandi. Fibromatoz polipning o'ziga xosligidan kelib chiqib, ya'ni polip to'qimasida biriktiruvchi to'qimaning fibrozlanishi ustun turishidan kelib chiqib, ushbu shaklida fibroz to'qimasning egallagan maydoni va faollik koeffitsienti ustun turishi tasdiqlandi. Uretra polipi yallig'lanishli shakli uretra shilliq pardasining uzoq vaqt davomida yallig'lanishli kasalligi oqibatida rivojlanishi tasdiqlangan holda, polip to'qimasi tarkibida yallig'lanish infiltrati va limfold follikulalar paydo bo'lishi bilan davom etganligidan ularning egallagan maydoni eng yuqori darajadaligi bilan ta'riflanganligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: ayollar, uretra, polip, histologik shakllari, to'qima tuzilmalari, morfometriya.

MORPHOMETRIC SIGNS OF TISSUE STRUCTURES IN HISTOLOGICAL FORMS OF URETHRAL POLIPS

Boboyev R.A., Xamraev O.A.

Andijan state medical institute

Abstract

In this article, morphometric characteristics of urethral polyps and histological features of urethral polyps were analyzed. The results of the study showed that, depending on the histological forms of urethral polyps in women, the area occupied by tissue structures varies depending on the pathomorphological changes characteristic of each of them. It has been proved that in the form of a glandular polyp, hyperplasia of glandular structures and the area occupied by them are sharply predominant, often due to their dishormonal state. Based on the specificity of the fibromatous polyp, that is, from the fact that connective tissue fibrosis prevails in the polyp tissue, it was confirmed that the area occupied by fibrous tissue and the activity coefficient predominate in this

form. It has been proved that the inflammatory form of the urethral polyp is characterized by the highest degree of their occupied area due to the ongoing inflammatory infiltration and formation of lymphoid follicles in the polyp tissue, while the development of a long-term inflammatory disease of the urethral mucosa has been confirmed.

Keywords: women, urethra, polyp, histological forms, tissue structures, morphometry.

МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ ТКАНЕВЫХ СТРУКТУР ПРИ ГИСТОЛОГИЧЕСКИХ ФОРМАХ ПОЛИПОВ УРЕТРЫ

Бобоев Р.А., Хамраев О.А.

Андижанский государственный медицинский институт

Аннотация

В этой статье были проанализированы морфометрические характеристики полипов уретры и гистологические особенности полипов уретры. Результаты исследования показали, что в зависимости от гистологических форм полипов уретры у женщин занимаемая тканевыми структурами, варьируется в зависимости от патоморфологических изменений, характерных для каждой из них. Доказано, что в форме железистого полипа резко преобладает гиперплазия железистых структур и занимаемая ими площадь, часто в связи с их дисгормональным состоянием. Исходя из специфики фиброматозного полипа, то есть из того, что в ткани полипа преобладает фиброзирование соединительной ткани, было подтверждено, что в этой форме преобладают площадь, занимаемая фиброзной тканью, и коеффицент активности. Доказано, что воспалительная форма полипа уретры характеризуется наивысшей степенью занимаемой ими площади из-за продолжающегося воспалительного инфильтрата и образования лимфоидных фолликулов в ткани полипа, при этом подтверждено развитие в результате длительного воспалительного заболевания слизистой оболочки уретры.

Ключевые слова: женщины, мочеиспускательный канал, полип, гистологические формы, структуры тканей, морфометрия.

Mavzuning dolzarbliji. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda uretra polipi o'smasimon jarayon sifatida epiteliysi proliferatsiyalishining buzilishi siyatida baholanadi [1, 2, 3], lekin uning paydo bo'lish mexanizmida noma'lum sabablarga ko'ra mezenximal-epitelmial gomoestazi buzilishi asosiy o'rinda turishi tasdiqlangan [4, 5, 6]. Uning sababi sifatida urogenital soha disgormonal buzilishlari, surunkali infektion-yallig'lanishla jarayon hisobga olinadi [7, 8]. Uretra polipining morfologik va morfometrik ko'rsatgichlarini mukammal adrajada o'rgangan adabiyotlar bizga uchramadi. Shu bilan birgalikda, uretra polipining gistotopografik jihatdan u yoki bu turdag'i formalarining rivojlanishi avvalbor uretra devori shilliq pardasi to'qima

tuzilmalarida gistogenetik va morfogenetik jarayonlar rivojlanishida qaysi bir to‘qima tuzilmalar rivojlanishi mexanizmlari ustun tursa, unga mos holda quyidagi polipning gistologik formalari tashkil topadi: bezli, fibromatozli, yallig‘lanishli va angiomatoz. Uretra polipining ushbu gistotopografik formalarining aniq patomorfologik diagnozini aniqlashda, to‘qima tuzilmalarining morfometrik ko‘rsatgichlarini o‘rganish va miqdoriy ko‘rsatgichlar bo‘yicha uretra polipining aniq gistologik formalarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotda maqsad qilib uretra polipining gistotopografik formalari to‘qima tuzilmalarining miqdoriy ko‘rsatgichlarini aniqlash qo‘yilgan.

Tadqiqot materiali sifatida Andijon viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyat markazi, Andijon davlat tibbiyat instituti klinikasi va Andijon shaxar “MEDICAL-PRO” mas’uliyati cheklangan tibbiyat markazi shifoxonalarining urologiya bo‘limida 2018-2022 yillarda davolanishdan o‘tgan 144 nafar ayollardan olingan ayollar uretrasi polipi biopsiya materiali gistologik jihatdan o‘rganildi. Ayollar yoshi 34 dan 62 gacha (o‘rtacha 51,6 yosh) bo‘lgan. Yorug‘lik mikroskopida o‘rganish uchun ushbu bemorlardan sistoskopiya tekshiruvida olingan polip bo‘lakchalari formalinning fosfat buferda eritilgant 10% eritmasida qotirildi. Parafin g‘ishchalaridan tayyorlangan gistologik kesmalar gematoksilin-eozin bo‘yog‘ida, biriktiruvchi to‘qima kollagen tolalari piksrofuksinli van-Gizon usulida, elastik tolalari Veygert usullida bo‘yaldi. Gistologik preparatlar mikroskopning 10, 20, 40 ob’ektivlari ostida o‘rganilib, kerakli joylari kompyuterga rasmi tushirildi. Uretra polipining har bir gistologik turlarini morfometrik tekshirish uchun mikronamunalar tayyorlandi va har bir mikronamunalar NanoZoomer (REF C13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN) uskunasida skaner qilindi va xar bir olingan mikronamunalar mkmarda o‘lchanib, egallagan maydonlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi yuqori aniqlikda xisoblanadi.

Morfometrik ko‘rsatkichlarini aniqlash mazkur patologiyada to‘qima gistioarxitektonikasini hajm va sifatiy o‘zgarishlar lokalizatsiyasini aniqlashga zamin yaratadi. Siyidik yo‘li poliplarida yuzaga kelgan to‘qima tuzilmalarining egallagan maydoni bo‘yicha, tomirlar egallagan soxasidagi o‘zgarishlarni raqamlar orqali ifodalash orqali olingan ko‘rsatkichlar taxlil qilindi. To‘qima komponentlarini o‘lchanib, 5-7 mkmda qalinlikdagi kesmalar 20x ob’ektivda skaner qilindi. Olingan mikrotasvirlarni morfometrik dasturiy ko‘rsatkichlar orqali olingan kattaliklar mkmada va %larda ko‘rsatildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Ayollar uretrasi polipining klinik-morfologik jihatdan 4-ta formasida patologik jaarayonlarning avj olib borishi, to‘qima tuzilmalarining yallig‘lanishli va disregenerator jarayonlarining mohiyatini va bez to‘qimasi tarkibidagi qon tomirlar, bez tuzilmalari, fibroz to‘qima va yallig‘lanish infiltratining miqdoriy jihatdan o‘zgarib borishini aniqlash maqsadida

morfometrik hisoblashlar o‘tkazildi. Xisoblashda preparatlar NanoZoomer (REF C13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN) uskunasida skaner qilindi va xar bir olingan mikronamunalar mkmlarda o‘lchanib, egallagan maydonlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi yuqori aniqlikda xisoblanadi. Hisoblash natijalari ko‘rsatishicha, polipning gistotopografik formalariga qarab to‘qima tuzilmalarining egallagan maydoni har xil ko‘rinishga egaligi aniqlandi. Polipning bezli formasida bez tuzilmalarining egallagan maydoni barcha to‘qima tuzilmalarining 36,2% tashkil qildi. Polipning bu formasida qoplovchi epiteliy ikki xil tuzilishga, ya’ni ko‘p qavatlari yassi va ko‘p qavatlari o‘zgaruvchan epiteliyga ega bo‘lib ayrim joylarida invaginatlar va proliferativ o‘choqlar paydo qilganligidan uning egallagan maydoni boshqa formadagi poliplardan farq qildi va 21,4%-tashkil qilganligi kuzatildi. Bu formadagi polip to‘qimasida, aynan qon tomirlari atrofida yallig‘lanish infiltrati paydo bo‘lganligi va u nisbatan kam darajada rivojlangan bo‘lsada 14,7% joyni egallaganligi aniqlandi. Qon tomirlari esa nisbatan yaxshi rivojlanganligi, aksariyat hollarda bez tuzilmalari orasidagi biriktiruvchi to‘qimada joylashganligi va 15,9% joyni egallaganligi topildi. Polip stromasi tarkibida, ko‘pincha periferik qismlarida biriktiruvchi to‘qimasining qo‘pollashib, fibroz to‘qimaga aylanganligi va uning egallagan maydoni eng kam darajada, ya’ni 11,8%-da ekanligi kuzatildi. Polipning ushbu formasida bez tuzilmalarining giperplaziyalanib ko‘payishi yuqori darajada bo‘lganligidan, uning faollik koeffitsienti ko‘rsatgichi nisbatan yuqori, ya’ni 0,56-ga tengligi aniqlandi. Bu formada yallig‘lanish jarayoni sust rivojlanganligini ko‘rsatadigan faollik koeffitsientining pastligi (0,17) uni tasdiqladi. Fibroz to‘qima faollik koeffitsienti ham juda pastligi kuzatildi (1-jadval).

Uretra polipining ikkinchi fibromatozli shaklida, polip stromasida qo‘pol tolali biriktiruvchi to‘qima, ya’ni fibroz to‘qima ko‘p miqdorda o‘sganligi kuzatilad va polip to‘qimasining 35,6% joyini egallaganligi aniqlanadi. Natijada polip to‘qimasida qon tomirlari nisbatan torayib, kkam joyni egallaganligi (13,2%) Inkin yallig‘lanish infiltrati qon tomirlar atrofida saqlanib qolganligi (16,4%) kuzatiladi. Bu shakldagi polip to‘qimasida bez tuzilmalari nisbatan juda kam darajada rivojlanganligi (16,2%) va yuzasidagi qoplovchi epiteliy ham atrofiyalanib, yupqalashganligi (18,6%) kuzatiladi. Fibrozli polip to‘qimasi tarkibidagi fibroz to‘qimaga aylangan biriktiruvchi to‘qimaning faollik koeffitsienti yuqoriligi (0,56) polip to‘qimasida biriktiruvchi to‘qimaning o‘sib ko‘payishini, ya’ni organizatsiyasi kuchliligini tasdiqlaydi.

Uretra polipi yallig‘lanishli shaklining morfometrik jihatdan o‘ziga xosligi shundaki, polip stromasida bez tuzilmalari minimum darajada rivojlanganligi va juda kam joyni egallaganligi (8,4%) aniqlanadi. Bu shakldagi polipga xos o‘zgarish sifatida stromasining barcha maydonlarida, jumladan qon tomirlari atrofi, qoplovchi

epiteliy osti, biriktiruvchi to‘qima tutamlari orasida ham limfo-gistiotitsitar tarkibli yallig‘lanish infiltrati joylashganligi, unga qo‘sishimcha holda limfold follikulalar paydo bo‘lganligi kuzatiladi. Shuning uchun bu shakldagi polip stromasida yallig‘lanish infiltratining egallagan maydoni eng, ya’ni 37,8%-ni tashkil qilganligi aniqlanadi. Qoplovchi epiteliysi boshqa shakldagi poliplarga nisbatan kamroq maydonni egallaganligi (19,8%) kuzatiladi (1-jadval). Ushbu shakldagi polip to‘qimasida yallig‘lanish jarayonining faollik koeffitsienti sezilarli darajada yuqoriligi (0,60) yallig‘lanish jarayonining kuchli rivojlanganligini tasdiqlaydi. Natijada, bu shakldagi polipda bez tuzilmalari va fibroz to‘qima faollik koeffitsentlari ancha pastligi bilan xarakterlanadi.

1-jadval.

Uretra polipi histologik shakllarida to‘qima tuzilmalarining morfometrik ko‘rsatgichlari, %.

Uretra polip turlari	To‘qima tuzilmalari egallagan maydon					To‘qima tuzilmalar faollik koeffitsienti		
	Vqe	Vbt	Vyai	Vft	Vqt	BTFK	YaIF T	FTFK
Bezli polip	21,4±1,8 3	36,2±2,1 5	14,7±1,5 8	11,8±1,4 4	15,9±1,6 3	0,56	0,17	0,13
Fibrozli polip	18,6±1,6 7	16,2±1,3 5	16,4±1,3 8	35,6±2,1 4	13,2±1,3 3	0,19	0,19	0,56
Yallig‘lanishli polip	19,8±1,7 1	8,4±1,24 6	37,8±2,1 4	16,2±1,3 4	17,8±1,6 3	0,09	0,60	0,19
Angiomatozli polip	20,5±1,8 1	7,2±1,19 2	17,8±1,4 2	9,7±1,24 2	44,3±2,2 6	0,07	0,21	0,10

Ayollar uretrasi poliplarining o‘ziga xos shakli, bu – karunkul hisoblanib, u keng maydonni egallagan, och-qizil rangli, ko‘kishroq tusda, yuzasi g‘adir-budur, tez qonaydigan ko‘rinishdaligi bilan belgilanadi.

Karunkul aslida qon tomirlardan rivojlangan o‘simta bo‘lib, to‘qimasida yallig‘lanish jarayoni ham kuchli rivojlanganligi aniqlanadi. Ushbu o‘simta ko‘pincha uretraning yallig‘lanishli kasalliklaridan keyin paydo bo‘ladi, sababi yallig‘lanish jarayoniga javoban qon tomirlarning kengayishi keyinchalik angiomatoz jarayon bilan almashinadi. Ushbu polip to‘qimasida parauretral bez tuzilmalari saqlanib qolganligi va ular bo-yo‘g‘i 7,2% joyni egallaganligi aniqlanadi. Korunkul to‘qimasida qon tomirlarning ko‘pligi va angiomatoz jarayonining rivojlanishi oqibatida qon tomirlar polip stromasining 44,3% joyini egallaganligi kuzatiladi. Angiomatoz jarayoni yallig‘lanish jarayoni bilan birga rivojlanganligidan uning egallagan maydoni nisbatan kengroq, ya’ni 17,8%-ni tashkil qiladi (1-jadval). Qoplovchi epiteliysi polipning boshqa shakllariga nisbatan kuchliroq giperplaziyalanganligi va ikki xil epiteliydan iboratligi, ya’ni ko‘p qavatli yassi va ko‘p qavatli o‘zgaruvchan epiteliydan tashkil topganligi sababli 20,5% joyni

egallagan. Korunkul to‘qimasining o‘ziga xos tuzilishi, undagi to‘qima tuzilmalarining faollik koeffitsienti nisbatan past darajada ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosalar:

Ayollar uretrasi poliplarining histologik shakllariga bo‘yicha har biriga xos patomorfologik o‘zgarishlarga bog‘liq holda to‘qima tuzilmalarining egallagan maydoni bir-biridan farq qilgan holda turlicha bo‘lishi kuzatildi.

Bezli polip shaklida ko‘pincha disgormonal holatiga bog‘liq holda bez tuzilmalarining giperplaziyalanishi va egallagan maydoni keskin darajada ustun turishi isbotlandi.

Fibromatoz polipning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ya’ni polip to‘qimasida biriktiruvchi to‘qimaning fibrozlanishi ustun turishidan kelib chiqib, ushbu shaklida fibroz to‘qimasning egallagan maydoni va faollik koeffitsienti ustun turishi tasdiqlandi.

Uretra polipi yallig‘lanishli shakli uretra shilliq pardasining uzoq vaqt davomida yallig‘lanishli kasalligi oqibatida rivojlanishi tasdiqlangan holda, polip to‘qimasi tarkibida yallig‘lanish infiltrati va limfold follikeulalar paydo bo‘lishi bilan davom etganligidan ularning egallagan maydoni eng yuqori darajadaligi bilan ta’riflanganligi isbotlandi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Коваленко В.Л., Куренков Е.Л., Кокшаров В.Н. Патоморфология и морфогенез приобретенных эпителиальных полиповидных образований желудка. - Челябинск, 2000. - 406 с.
2. Кондратьева Ю.С. Яковлев А.Б. Неймарк А.И. Этиологическая роль У. Уреалилитисум в развитии полипов уретры у женщин // Материалы ИИ конгресса евроазиатской ассоциации дерматовенерологов. - М., 2012. - С.105- 106.
3. Неймарк А.И., Бакарев М.А., Лушникова Е.Л., Пичигина А.К., Яковлев А.В. Клинико-морфологические особенности полипов уретры у женщин на фоне урогенитальной инфекции // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 1-6. – С. 1194-1198;
4. Неймарк А.И., Кондратьева Ю.С., Яковлев А.Б. Особенности клинической и патоморфологической картины полипов уретры у женщин, ассоциированных с уреаплазменной инфекцией // Сибирский журнал дерматологии и венерологии. - 2013. - № 14. - С. 71 - 74.
5. Неймарк А.И., Яковлев А.Б. Роль инфекций, передаваемых половым путем, в возникновении полипов наружного отверстия уретры у женщин

- // Актуальные вопросы диагностики и лечения урологических заболеваний. - Барнаул, 2011. - С. 251.
6. Яковлев А.Б., Неймарк А.И. Таранина Т.С. Кондратьева Ю.С. Раздорская М.В. Клиника и патоморфология полипов уретры у женщин при уреаплазменной инфекции // Уральский медитсинский журнал. - 2012. - №1 (93). - С.90-93.
7. Яковлев А.Б., Неймарк А.И., Кондратьева Ю.С., Таранина Т.С. Роль микротиркуляторных нарушений в дифференциальной диагностике полипов уретры, ассоциированных с уреаплазменной инфекцией, и полипов
8. Неймарк А.И., Кондратева С.Ю., Фидарова С.В., Таранина Т.С., Яковлев А.В. Саусативе Роле оф У.Уреалитисум анд отхер Цехуаллй Трансмиттед Инфекшионс ин тхе Уретхрал Meatus Полийп Девелопмент ин Wомен // Инт. Ж. Биомед. 2013.-Вол. 3, №3. П. 170- 173.